

Maxsus aloqa xizmatlarini ko'rsatishga

SHARTNOMA № 489

Toshkent sh.

2022 y. "05" sentabr

O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi "Respublika maxsus aloqa bog'lamasi" davlat unitar korxonasi, bundan buyon "Bajaruvchi" deb atalgan holda, Ustaviga asoslanib faoliyat yurituvchi boshliq Mirnosirov Mirkomil Mirxaydarovich, bir tomon bo'lib va Yupriq markaz kommunikatsiya

(korxona, tashkilot, muassasa nomi)

nomidan M. U. Uspuev

(lavozimi, familiyasi, ismi, ota ismi)

kelgusida "Buyurtmachi" deb atalgan holda, Yemob muvofiq ish yurituvchi
(ustav, qaror, ishonchnoma)

ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI.

1.1. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga tegishli bo'lgan yozma xat-xabarlar (paketlar), posilkalar va upakovkalarni (bundan keyin-jo'natmalar) "Buyurtmachi"ning binosida qabul qilish va ularni O'zbekiston Respublikasi hamda MDH mamlakatlaridagi (tuman ma'muriy markazlaridan quyida bo'lmagan) adresatlarga yetkazib berish (topshirish) majburiyatini o'z zimmasiga oladi, "Buyurtmachi" esa "Bajaruvchi"ning ushbu xizmatlarini o'z vaqtida va to'liq to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

2.1. "Bajaruvchi"ning majburiyatlari:

haftaning har 3 kyu kunida
(hafta kunlari)

jo'natmalarni "Buyurtmachi"ning binosida qabul qilish uchun avtomashina bilan feld'egerni yuborish;

maxsus aloqani tashkil qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning talablari va me'yorlariga hamda mazkur Shartnomaning shartlariga muvofiq jo'natmalarni qabul qilish, ishlash, tashish va topshirish;

"Buyurtmachi"ga maxsus aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlari va tartibi (jo'natmalarni o'rash, muhrlash, manzilini ko'rsatish, vazni va o'lchamlarining me'yorlari, yetkazib berish jadvali va muddatlari, maxsus aloqa xizmatlari tariflari va boshqalar) haqidagi axborotni taqdim etish;

jo'natmalarning ishlashda, saqlashda, tashishda va topshirishda butligini ta'minlash va lozim bo'lgan ehtiyot choralarini ko'rish;

"Buyurtmachi" tomonidan qilingan shikoyat yoki da'volarni qonun hujjatlarida va maxsus aloqani tashkil qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomada belgilangan tartib va muddatlarda ko'rib chiqish.

2.2. "Bajaruvchi"ning huquqlari;

yetkazib berish uchun qabul qilinayotgan jo'natmalarning chegaraviy vaznini, o'lchamlarini, sonini, jo'natmalarni yetkazib berish ketma-ketligi va jadvalini belgilash;

jo'natmalarni yetkazib berish uchun eng maqbul mashrutlarni va transport turini belgilash;

"Buyurtmachi" mazkur Shartnomaning 3.4-bandini bajarmagan taqdirda, "Buyurtmachi"

yo'zma shaklda xabar qilingan kundan boshlab 15 kun o'tgandan keyin jo'natmalarni qabul qilishni to'xtatib qo'yish;

agar jo'natmalarni rasmiylashtirishda ularning o'rashga, vazniga, o'lchamlariga va manzilini ko'rsatishga qo'yilgan talablarni "Buyurtmachi" buzgan bo'lsa, bunday jo'natmalarni, shuningdek ilova hujjatlari noto'g'ri rasmiylashtirilgan jo'natmalarni "Buyurtmachi"dan qabul qilishni rad qilish;

agar qabul qilingan jo'natmalarning manzili haqidagi ma'lumotlar noto'g'ri ko'rsatilgan, yoki to'liq bo'lmaganligi, nomiga jo'natmalar kelgan kundan boshlab 15 kun davomida adresatni yo'qligi, adresat jo'natmalarni qabul qilishdan bosh tortganligi va boshqa "Bajaruvchi"ga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra "Bajaruvchi" jo'natmalarni yetkazib berolmagan (topshirolmagan) bo'lsa, ularni "Buyurtmachi"ga qaytarib berish;

maxsus aloqa xizmatlari uchun tariflarni mustaqil ravishda o'zgartirish. Yangi tariflar bildirish xatiga ilova qilinib, amalga kiritilgan kundan 10 kun kechiktirmasdan "Buyurtmachi"ga yuboriladi.

2.3. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

jo'natmalarni o'rashga, vazniga, o'lchamlariga, muhrlashga, manzilini ko'rsatishga va ilova hujjatlarini rasmiylashtirishga oid "Bajaruvchi"ning talablariga rioya qilish;

"Bajaruvchi"ning feld'egeri kelgan paytida jo'natmalarni topshirishga taxt qilib qo'yish (belgilangan tartibda jo'natmalarni o'rash va muhrlash, manzilini aniq ko'rsatish, ilova xujjatlarini tayyorlab qo'yish);

bojxona va boshqa rasmiyatchiliklarga rioya qilishni talab qiladigan jo'natmalarning zarur bo'lgan ilova va ruxsat berish hususiyatli boshqa xujjatlarini tayyorlash;

o'ziga hos hususiyatga ega, saqlash, ishlash va tashish uchun alohida sharoit talab qiladigan jo'natmalarni, qurol va o'qdori, qurolning qismlari joylangan, aviatsiya transportida tashilishi ta'qiqlangan, shuningdek yirik gaybaritli (har uch o'lchovi 45 santimetrdan katta) va og'ir (30 kilogrammdan ortiq) jo'natmalarni faqat "Bajaruvchi" bilan kelishilgandan keyin topshirish;

o'zining nomlanishi, manzili va bank rekvizitlari o'zgarganligi haqida "Bajaruvchi"ga axborot berish.

2.4. "Buyurtmachi"ning huquqlari:

"Bajaruvchi"ning faoliyatiga aralashmagan holda, mazkur Shartnoma doirasidagi topshiriqlarni "Bajaruvchi" tomonidan bajarib borilishi haqida axborotni talab va nazorat qilish hamda rasmiy ravishda so'rash.

3. HISOB-KITOB TARTIBI.

3.1. Mazkur Shartnomaning 20 22 yil "05" sentabridan 20 22 yil "31" dekabr gacha bo'lgan davrda umumiy summasi (15% QQS ni hisobga olgan holda) 450000 (Семьсот пятьдесят тысяч рублей) / бюджетная: — руб
бюджетная марка: 450000 (сто пятьдесят тысяч) руб so'mni tashkil etadi.
(summasi raqam va so'z bilan)

Yakuniy to'lov amalda ko'rsatilgan xizmatlar uchun amalga oshiriladi.

3.2. "Buyurtmachi" xizmatlar xaqini mazkur Shartnomaga ilova qilingan maxsus aloqa xizmatlari uchun tariflarga muvofiq to'laydi.

3.3. "Buyurtmachi" mazkur Shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida Shartnomaning umumiy bahosining 30 foizi miqdorida oldindan xaq to'laydi.

3.4. "Buyurtmachi" har oyda "Bajaruvchi"ning xizmatlari uchun to'lovni hisobvaraqa-fakturani olgan kundan boshlab 5 kun ichida to'laydi.

3.5. "Buyurtmachi"ning binosida jo'natmalarni qabul qilish uchun avtomashina bilan feld'eger yuborilganiga xaq "Buyurtmachi" topshirgan jo'natmalarning soni yoki mavjud bo'lishiga qaramasdan, har bir borib kelishiga olinadi.

3.6. Zaruriyatga qarab yoki tomonlardan birining talabiga ko'ra mazkur Shartnoma bo'yicha qilingan hisob-kitoblarni solishtirib chiqish amalga oshiriladi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

4.1. Xususiy shaxslar nomiga yo'llangan, o'zga korxonalarning muhri (plombasi) bilan muhrlangan (plombalangan), shuningdek zaharlar, o'yuvchi kislotalar va ishqorlar, portlovchi, tez

alangalanuvchi, zaharlovchi va radioaktiv moddalar, bakteriologik preparatlar, giyohvand moddalar va "Bajaruvchi" yoki uchinchi shaxs ishchilarining hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'yuvchi, mulkiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa xavfli moddalar jo'natmalarni maxsus aloqa orqali yuborish man qilinadi.

4.2. Tomonlardan biri Shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bu tomon boshqa tomonga yetkazilgan zararni to'laydi va qonun xujjatlariga hamda mazkur Shartnomaga muvofiq boshqacha tarzda javobgar bo'ladi.

4.3. Yetkazib berish uchun qabul qilingan jo'natmalarni yo'qotish, shikastlash, yetkazib bermaslik (topshirmaslik), joylanmaning kam chiqishi xollari "Bajaruvchi"ning aybi bilan bo'lganda, "Bajaruvchi" qonun xujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

4.4. Agar jo'natmalarni qobig'ining va muhrlarining (plombalarining) butunligi buzilmagan bo'lsa, "Buyurtmachi" jo'natmalarni tayyorlashda joylanmaning o'ziga hos xususiyatlarini inobatga olmasdan joylagan bo'lsa, joylanma shikastlangani yoki kam chiqqani uchun "Bajaruvchi" javobgar bo'lmaydi.

4.5. Xizmatlar o'z vaqtida ko'rsatilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi o'z vaqtida ko'rsatilmagan xizmatlarni qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

4.6. Maxsus aloqa orqali yuborish man qilingan (mazkur Shartnomaning 4.1-bandida ko'rsatilgan) jo'natmalarni yetkazib berish uchun "Buyurtmachi" topshirgani aniqlansa, "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ni yoki uchinchi shaxslarning oldida qonun xujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

4.7. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida xaq to'lanmaganda "Buyurtmachi" "Bajaruvchiga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasini 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

4.8. Penya to'lash Shartnoma majburiyatlarini bajarmagan tomonni Shartnomani bajarishdan va yetkazilgan zararni to'lashdan ozod qilmaydi.

4.9. Agar yengib bo'lmas kuch sharoiti (fors-major) yuzaga kelganligi, masalan hukumat qarorlari, tabiiy ofat, epidemiya, har qanaqa tushadigan harbiy operatsiyalar va shu kabilar mazkur Shartnoma majburiyatlari bajarilmagan taqdirda, tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadilar.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Mazkur shartnomaning bajarilishida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar imkon qadar tomonlarni muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Agar muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal etish imkoni bo'lmasa, tomonlar qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan kelishmovchiliklarni sudgacha hal etish tartibi choralarni ko'rishgandan so'ng, ularni hal etish uchun Toshkent shahar tumanlararo Iqtisodiy sudiga oshiradilar.

6. OSHKOR QILINMAYDIGAN MA'LUMOTLAR.

6.1. Tomonlar mazkur shartnoma talablarini ijrosini bajarish davrida ularga ma'lum bo'lgan oshkor qilinmaydigan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar. Oshkor qilinmaydigan ma'lumotlar sifatida mazkur shartnomada oshkor qilinishi tomonlar uchun zarar yetkazishi yoki tomonlar obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar tushuniladi.

6.2. Tomonlar o'z zimmlariga mazkur shartnomaning 6.1. punktida ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni o'zlarining vakolatli shaxslaridan hamda tomonlarning har birining nomidan ma'lumotlarni jo'natish va qabul qilib olish uchun javobgar bo'lgan shaxslaridan tashqari uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar.

6.3. Mazkur shartnomaning 6.1 bandida ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlarda oshkor qilinishi mumkin.

6.4. Mazkur shartnoma bekor qilingan holatda, tomonlar shartnomaning 6.1 bandida ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik va ushbu ma'lumotlarni o'zlarining va/yoki uchinchi shaxsning manfaati uchun mazkur shartnoma bekor qilingan sanadan 1 yil muddat davomida foydalanmaslik majburiyatini oladilar.

7. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH QOIDALARI.

7.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish doirasida tomonlar amaldagi qonunchilik shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar. Bunda ular va ularning hodimlari, filiallari, benefitsarlari va ushbu shartnomani bajarishda ishtirok etadigan agentlar biznes sheriklari, vositachilar, pudratchilar pora berish yoki olish, tijorat pora olish sifatidagi harakatlarni (harakatsizligi) amalga oshirmasliklarini ta'minlash, pora berishda vositachilik, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi hodimining yoki boshqa shaxslarning pora olishi va ushbu shartnoma va korrupsiyaga qarshi kurashish va jinoyatchilikdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi qo'llaniladigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi.

7.2. Tomonlar bevosita yoki bilvosita, shahsan yoki uchinchi shahslar orqali takliflar, va'dalar, berish, tovlamachilik, so'rovlar, pul va boshqa qimmatbaho buyumlar, mulk, mulk huquqi va boshqa moddiy yoki moddiy bo'lmagan foydalarni olish va olishga rozilik berish hamda asossiz ustunlikka erishish yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish, shu jumladan tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va oshkoraligi tamoyillariga mos kelmaydigan maqsadlarga erishish xamda xar qanday shahslardan ularga ta'sir o'tkazishdan bosh tortadilar. Tomonlar qayd etilgan harakatlarning oldini olish choralari ko'rishni kafolatlaydilar.

7.3. Mazkur shartnomaning korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarini bajarish doirasida, ushbu shartnomani tomonlar qonun buzilishida gumonlarning paydo bo'lishi yoki tomonlar, ularning xodimlari, affilangan shahslari, benefitsarlari va ular tomonidan jalb qilingan shaxslar tomonidan buzilish ehtimoli borligi to'g'risida bir-birlarini yozma ravishda (shu jumladan korporativ elektron pochta dan foydalangan holda) ochiq va darhol xabardor kilishni o'z zimmlariga olishadi.

shunindek, agar tomonlardan biri amaldagi qonun yoki ushbu shartnomaning har qanday korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarini boshqa tomon, uning xodimlari, affilangan shahslari, benefitsarlari yoki ular tomonidan jalb qilingan shaxslar tomonidan buzilganligi to'g'risida asosli shubha tug'dirsa, ushbu shartnomani amalga oshirish doirasida ushbu tomon unga so'rov olingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida sharhlar va buzilish faktini rad qiluvchi yoki tasdiqlovchi ma'lumotlar, hujjatlar taqdim etish talabi bilan yozma ravishda so'rov yuborishga haqlidir.

7.4. Mazkur bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilishni talab qilgan tomon keyingi tomonidan yetkazilgan zararni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, shu bilan birga ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilish tufayli zararni qoplashni talab qilishga xaqli emas.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISHI.

8.1. Mazkur Shartnoma 2022 yil "05" sentabr dan kuchga kiradi va 2024 yil "31" dekabr gacha amal qiladi.

8.2. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

9.YAKUNIY QOIDALAR.

9.1.Mazkur Shartnoma tomonlarning kelishuviga muvofiq bekor qilinishi mumkin. Shartnomani bekor qilish bildirish xatini yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi.

9.2. Mazkur Shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma ravishda tuzilgan va tomonlarning tegishli vakolatli vakillari tomonidan imzolangan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi.

9.3. Mazkur Shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuzildi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

10. TOMONLARNING MANZILI VA BANK REKVIZITLARI

"Bajaruvchi": DUK "Respublika maxsus aloqa bog'lamasi"

10000, Toshkent shahar, Ya. G'ulomov ko'chasi, 2

H/r: 20210000100155276001 AKB Aloqa bank


MFO 00401, STIR 201440547, IFUT 53200

Tel: 71)239-85-09, 71)239-19-49 (navbatchi)

E-mail:info@rmab.uz

To'lovchining ro'yxatdan o'tish kodi 326020005424

"Buyurtmachi":



11.TOMONLARNING IMZO VA MUHRLARI.

"Bajaruvchi"

M.O'.

"Buyurtmachi"

20

y."

"

M.O'.

Handwritten signature and stamp of the buyer.

"Республика махсус алоқа боғламаси" ДУК махсус алоқа хизматларига
тарифларнинг чегара даражаси (КҚС билан)

1. ПРЕЙСКУРАНТ №125-04-20/4-2/1

Жорий этиш санаси: 2019 йил 1 октябрь

Т/р	Хизматлар тури	Хизматлар ҳақи, сўм	
		Ер устидаги транспортда юбориш	Авиатранспортда юбориш
1.	Грифли (махфий) пакетларни етказиб бериш: - вазни 20 граммгача бўлган	127	217
	- кейинги ҳар бир тўла ва нотўла 20 грамм вазни учун	29	55
2.	Грифли (махфий) посилкаларни етказиб бериш: - биринчи 20 грамм вазни учун	118	201
	- кейинги ҳар бир тўла ва нотўла 20 грамм вазни учун	28	51

Изоҳ: Агарда грифли(махфий) жўнатмаларни етказиб бериш траекториясида авиатранспорт хизматларидан фойдаланиладиган бўлса, хизматлар учун тўлов прејскурантнинг "Авиатранспортда юбориш" тарифига асосан белгиланади.

2. ПРЕЙСКУРАНТ №125-04-20/4-2/2

Жорий этиш санаси: 2022 йил 1 январь

Т/р	Хизматлар тури	Хизматлар ҳақи, сўм			
		Ҳудуд 1	Ҳудуд 2	Ҳудуд 3	Ҳудуд 4
1.	Махфий бўлмаган ("Хизматда фойдаланиш учун", "хизматга оид" белгилӣ ва бошқа) пакетларни етказиб бериш:				
	вазни 100 граммгача	15 100	17 800	24 700	55 900
	101-200	27 300	32 500	45 800	104 700
	201-300	38 200	45 100	65 900	152 500
	301-400	50 300	59 800	85 700	198 700
	401-500	61 000	72 700	100 400	244 400
	501-1000	71 400	84 700	123 800	287 000
	1001-1500	81 800	97 600	143 200	331 800
	1501-2000 граммгача бўлган	92 000	108 900	160 200	373 000
	кейинги ҳар бир 100 грамм учун	11 200	14 000	21 000	35 000
2.	Махфий бўлмаган посилкалар ва барча турдаги қадоқларни етказиб бериш:				
	- вазни 1 килограммгача бўлган	54 500	64 400	90 700	157 600
	- кейинги ҳар бир тўла ва нотўла 1 килограмм вазни учун	33 900	40 200	56 400	98 100

Худудлар бўйича маълумот илова №1 га асосан

3.	Қимматли пакет, посилка ва қадоқларни етказиб бериш: эълон қилинган қиймати	эълон қилинган қийматидан 0,6%, лекин 50 000 дан кам эмас
----	--	---

Изоҳ: жўнатмалар вазни учун тўлов суммаси мазкур Прејскурантнинг 1 ва 2 - бандларига муфовиқ белгиланади

4. Қўшимча хизматлар

Т/р	Хизматлар тури	Хизматлар ҳақи, сўм	
		Ҳудуд 1	Ҳудуд 2
4.1	Жўнатувчининг биносида жўнатмаларни қабул қилиш учун автомашина билан фелъдъегерни юбориш, битта манзилга:		
	- Тошкент шаҳри чегарасида	69 900	
	- Тошкент шаҳридан ташқарида (туманлар марказигача)		
	100 километргача	90 200	
	200 километргача	122 900	
4.2	Қабул қилинган ҳар бир жўнатмани қайта ишлаш учун		3 500
4.3	Қабул қилувчига жўнатмаларни тезкор равишда етказиб бериш		
	- ҳудуд 1 (12 соат ичида)	105 000	
	- ҳудуд 2 (24 соат ичида)	168 000	
	- ҳудуд 3 (томонларни келишувига биноан)	168 000	
4.4	Топширилганлиги маълум қилинадиган жўнатмани қабул қилиш:		
	- хабар қоғози-тихат учун Ўзбекистон Республикаси бўйлаб	29 400	
4.5	Расмий сўроқ юбориш (ҳар бир сўралган жўнатма учун):		
	- Ўзбекистон Республикаси бўйлаб	29 400	
	- МДХ давлатлари бўйлаб	98 000	

ИЗОХ:

1. Ушбу Тарифларда куйидаги асосий тушунчалар қўлланилади:
пакет – конверт ичига солинган ёки калин қоғозга ўралган ҳужжат ёки қимматли қоғозлар;
посилка ва қадоклар – қобиғи матодан бўлган, брезент ёки зигир тола қопларга, мато билан қопланган (қопланмаган) ёки қопта солинган ёроқ (тахта, фанер) қутиларга, металл, пластик қутиларга (контейнерларга) солинган жойланмалар;
жўнатмалар – пакет, посилка ва қадоклар;
қимматли пакет, посилка ва қадоклар – жўнатувчи томонидан топшириш вақтида жойланма қиймати эълон қилинган жўнатмалар;
2. Пакетнинг ўлчамлари 11х15 сантиметрдан кичик ва 5х30х38 сантиметрдан катта бўлмаслиги керак.
Пакетнинг вазни 2 килограммдан, қимматли пакетнинг вазни 0,5 килограммдан оғир бўлмаслиги керак.
Фақат Мудофаа вазирлигининг ҳарбий қисм ва муассасаларидан вазни 5 килограммгача ва ўлчамлари 15х25х35 сантиметрдан катта бўлмаган махфий ва хизмат пакетлар қабул қилинади.
3. Посилкаларнинг ўлчамлари 5х10х15 сантиметрдан кичик ва ҳар уч ўлчови 45 сантиметрдан катта, рулон ва цилиндрсимон гилоф (тубус)да – диаметри 20 сантиметрдан ва узунлиги 120 сантиметрдан катта, картография материаллари солингани - 15х150х150 сантиметрдан катта бўлмаслиги керак.
Посилканинг вазни 10 килограммдан, киноленталар солингани – 16 килограммдан, картография материаллари солингани – 20 килограммдан оғир бўлмаслиги керак.
4. Ҳужжат ва қимматли қоғозларни жўнатиш учун конверт жўнатувчилар томонидан белгиланган тартибда тайёрланади ва муҳрланади. Ҳужжат ва қимматли қоғозларни ўраш учун газета, бўш (юмшоқ), ялтироқ, пардозланган, пергамент, ёруғлик ўтказадиган қоғоздан, шунингдек бадий ва илгари ишлатилган конвертлардан фойдаланишга йўл қўйилмайди.
Бурчак ва кирралари каттик ўткир бўлганлиги сабабли конверт қобиғига шикаст етказиши мумкин бўлган ҳужжат ва қимматли қоғозлар фақат “Крафт” қоғозига ўралиши керак.
5. Посилка ва қадоклар учун тара жўнатувчи томонидан белгиланган тартибда тайёрланади ва муҳрланади (пломбланади).
6. Жўнатувчи ва махсус алоқа қорхонасининг ўзаро қелишишига қараб, етказиб бериш учун посилка ва қадокларнинг айрим турлари завод ўрамада, картон ва пластик қутиларда, калин қоғоз ёки полиэтилен плёнкага (копга) ўралган, мастикадан ясалган муҳрнинг босилган изи ёки қоғоз нақлейка устидан шаффов ёпишқоқ тасма, шунингдек махсус тасма, фирма этикеткалари билан муҳрланган ҳолда ёки тарага жойламасдан қабул қилиниши мумкин.
7. Агар жўнатмаларнинг вазни ва ўлчамлари белгиланган меъёрларидан ортиқ бўлса, уларни етказиб бериш учун хизмат хақи жўнатувчи ва махсус алоқа қорхонасининг ўзаро қелишишига қўра белгиланади.
8. Махсус алоқа қорхонаси махсус алоқа хизматида фойдаланувчи билан ўзаро қелишувга мувофиқ фойдаланувчининг хусусиятидан, жўнатмаларнинг сони, тури, ташилиш шартлари ва бошқа омиллардан келиб чиқиб, тасдиқланган тарифларни ўзгартириш ҳуқуқига эга.

ИЛОВА №1

	Худуд 1	Худуд 2	Худуд 3	Худуд 4
"РМАБ" ДУК	Тошкент шаҳри	Тошкент вилояти (Тошкент шаҳридан ташқари)	Тошкент шаҳри ва Тошкент вилоятидан ташқари Ўзбекистон Республикасининг барча шаҳар ва туманлари	МДХ давлатлари, Украина ва Грузиядан ташқари
Чирчик МАП	Чирчик шаҳри, Тошкент шаҳри	Тошкент вилояти (Чирчик шаҳри, Тошкент шаҳридан ташқари)	Тошкент шаҳри ва Тошкент вилоятидан ташқари Ўзбекистон Республикасининг барча шаҳар ва туманлари	МДХ давлатлари, Украина ва Грузиядан ташқари
“РМАБ” ДУК филиаллари:				
ҚР МАБ	Нукус шаҳри	Қорақалпоғистон Республикаси (Нукус шаҳридан ташқари)	Нукус шаҳри ва Қорақалпоғистон Республикасининг барча шаҳар ва туманлари	МДХ давлатлари, Украина ва Грузиядан ташқари
Андижон ВМАБ	Андижон шаҳри	Андижон вилояти (Андижон шаҳридан ташқари)	Андижон шаҳри ва Андижон вилоятидан ташқари Ўзбекистон Республикасининг барча шаҳар ва туманлари	МДХ давлатлари, Украина ва Грузиядан ташқари
Бухоро ВМАБ	Бухоро шаҳри	Бухоро вилояти (Бухоро шаҳридан ташқари)	Бухоро шаҳри ва Бухоро вилоятидан ташқари Ўзбекистон Республикасининг барча шаҳар ва туманлари	МДХ давлатлари, Украина ва Грузиядан ташқари
Жиззах ВМАБ	Жиззах шаҳри	Жиззах вилояти (Жиззах шаҳридан ташқари)	Жиззах шаҳри ва Жиззах вилоятидан ташқари Ўзбекистон Республикасининг барча шаҳар ва туманлари	МДХ давлатлари, Украина ва Грузиядан ташқари
Қашқадарё ВМАБ	Қарши шаҳри	Қашқадарё вилояти (Қарши шаҳридан ташқари)	Қарши шаҳри ва Қашқадарё вилоятидан ташқари Ўзбекистон Республикасининг барча шаҳар ва туманлари	МДХ давлатлари, Украина ва Грузиядан ташқари
Навоий ВМАБ	Навоий шаҳри	Навоий вилояти (Навоий шаҳридан ташқари)	Навоий шаҳри ва Навоий вилоятидан ташқари Ўзбекистон Республикасининг барча шаҳар ва туманлари	МДХ давлатлари, Украина ва Грузиядан ташқари
Наманган ВМАБ	Наманган шаҳри	Наманган вилояти (Наманган шаҳридан ташқари)	Наманган шаҳри ва Наманган вилоятидан ташқари Ўзбекистон Республикасининг барча шаҳар ва туманлари	МДХ давлатлари, Украина ва Грузиядан ташқари
Самарканд ВМАБ	Самарканд шаҳри	Самарканд вилояти (Самарканд шаҳридан ташқари)	Самарканд шаҳри ва Самарканд вилоятидан ташқари Ўзбекистон Республикасининг барча шаҳар ва туманлари	МДХ давлатлари, Украина ва Грузиядан ташқари
Сурхондарё ВМАБ	Термез шаҳри	Сурхондарё вилояти (Термез шаҳридан ташқари)	Термез шаҳри ва Сурхондарё вилоятидан ташқари Ўзбекистон Республикасининг барча шаҳар ва туманлари	МДХ давлатлари, Украина ва Грузиядан ташқари
Сирдарё ВМАБ	Гулистон шаҳри	Сирдарё вилояти (Гулистон шаҳридан ташқари)	Гулистон шаҳри ва Сирдарё вилоятидан ташқари Ўзбекистон Республикасининг барча шаҳар ва туманлари	МДХ давлатлари, Украина ва Грузиядан ташқари
Фарғона ВМАБ	Фарғона шаҳри	Фарғона вилояти (Фарғона шаҳридан ташқари)	Фарғона шаҳри ва Фарғона вилоятидан ташқари Ўзбекистон Республикасининг барча шаҳар ва туманлари	МДХ давлатлари, Украина ва Грузиядан ташқари
Хоразм ВМАБ	Ургенч шаҳри	Хоразм вилояти (Ургенч шаҳридан ташқари)	Ургенч шаҳри ва Хоразм вилоятидан ташқари Ўзбекистон Республикасининг барча шаҳар ва туманлари	МДХ давлатлари, Украина ва Грузиядан ташқари